

ILK QADAM

Jumanova Nilufar

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1 kurs magistranti

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish uchun joriy etilgan ilk qadam davlat dasturi yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur dastur doirasidagi qilinishi lozim bo'lgan narsalar haqida qisqacha to'htalib yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ilk qadam dasturi, maktabgacha ta'lim, bolalar, ayrim nuqson ega bolalar, metodik ko'rsatmalar.

“Bizning asosiy maqsadimiz yoshlarni sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish, ularning o'z qobiliyati uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat”^[1] Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi “O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablari”ga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari, maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'limning keyingi bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi ta'lim muassasalarida:

- davlat maktabgacha ta'lim muassasalari;
- maktabgacha ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi nodavlat muassasalari;
- maktabgacha guruhlarga ega bo'lgan «Mehribonlik» bolalar uylari;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlarida
 - ushbu davlat o'quv dasturini qo'llash majburiydur.

Davlat o‘quv dasturi 7 ta bobdan iborat bo‘lib,

I-bobda MTM davlat o‘quv dasturini qo‘llash va MTMning maqsad va vazifalari aks ettirilgan. Davlat o‘quv dasturi variativ o‘quv dasturlarini yaratishda majburiy tayanch hujjat hisoblanadi. Ta’lim muassasalari Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan variativ o‘quv dasturlaridan foydalanish huquqiga ega. Ta’lim muassasasi Davlat o‘quv dasturi asosida o‘zining MTM ishchi o‘quv dasturini ishlab chiqish huquqiga ega. Ta’lim muassasasining ishchi o‘quv dasturi muassasa pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladi va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadi

Davlat o‘quv dasturida MTMning quydagisi maqsad va vazifalari belgilab berilgan.

- bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga oid Davlat talablari asosida hamda Davlat o‘quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish.

II-bob: MTM ta’lim jarayonining maqsad va tamoyillari deb nomlanib, u quydagilarni:

- MTM ta’lim jarayonining maqsadlari
- MTMda ta’lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari

- Qo'shimcha ta'lim xizmatlarini tashkil qilish
- Alovida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyati
- Ota-onalar bilan hamkorlikni o'z ichiga oladi.

Davlat dasturida MTM ta'lim jarayonining maqsad va tamoyillariaks ettirilgan bo'lib: O'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir.

MTMdai ta'lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari:

- bola huquqlari, o'ziga xos rivojlanish xususiyat va salohiyatlarini hisobga olish;
- ta'lim jarayonida barcha turdag'i rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligi;
- bola salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, uning harakatlanish ehtiyojlarini qondirish;
- bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash;
- o'yin orqali ta'lim berish va rivojlantirish;
- bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish;
- bola uchun xavfsiz muhitni ta'minlash;
- MTMning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi;
- milliy madaniy an'analar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

Alovida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyati Maktabgacha ta'lim muassasasida alovida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari javobgar bo'ladi. Zarurat tug'ilganda, pedagoglar tarkibi va maktabgacha ta'lim muassasasi rahbariyati, tor ixtisosdagi mutaxassislarni jalg etgan holda, bola (uning rivojlanishi) uchun o'quv-tarbiyaviy faoliyatning individual rejasini tuzadi.

III-bob: Maktabgacha yoshdagি bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv deb nomlanib, dasturning majburiy 5ta ta'lim soxasini o'z ichiga oladi.

- «Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish» sohasi kompetensiyalari
- «Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari
- «Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari» sohasi kompetensiyalari
- «Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi kompetensiyalari
- «Ijodiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari Maktabgacha yoshdagи (6-7 yosh) bolaning umumiyligi muhim kompetensiyalari Kompetensiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir.

IV Bob O'quv-tarbiyaviy faoliyat bobida O'zbekiston Respublikasidagi barcha MTMlarda tashkil etiladigan o'quv va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish masalalarini o'z ichiga oladi. Bunda: MTMlarda o'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejorashtirish turlari yillik mavzuviy va haftalik ish rejalarini va tarbiyachi tomonidan rejorashtirishni amalga oshirish yoritib beriladi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktab yoshidagi bolalarni rivojlantirishga oid davlat talablari» asosida amalga oshiriladi.

V-bob Bolaning rivojlanish sohalari bo‘yicha yutuqlari MTM pedagoklari tomonidan: bolaning rivojlanishini kuzatib borish xaritasiyiliga uch marta to‘ldirilad (3 dan 7 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan) shuninkdek 6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi xam to‘ldiriladi. Buxarita Davlat dasturiga muvofiq bolarivojlanishning beshta sohasi kompetensiyalari bo‘yicha kutilayotgan natijalar ifodalanadi.

VI bob. Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish bobida Maktabgacha ta’limmuassasidaquyidagi mazmunda:

- ko‘rgazmali-rivojlantiruvchi,
- madaniy-tarixiy qadriyatlar;
- milliy va mintaqaviy an'analar;
- tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo‘lishi yoritiladi;

VII bob. Ilovalarni o‘z ichiga olib ushbu dasturni amaliyotda qo‘llashning mazmun va moxiyati yoritib beriladi. Dastur – muhim vosita bo‘lib, uning yordamida tarbiyachilar (mutaxassislar) O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojiga oid Davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun eng maqbul va samarali shakllar, metodlar va ta’lim jarayonini tashkil qilish yo‘llarini belgilaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyotmatbaa konserni, 1997.
2. Munavvarov A.q.ning umumiy tahriri ostida. - Toshkent, O‘qituvchi, 1993.

3. Ziyomuhamedov B. Ma'rifat asoslari. – Toshkent, Chinor ENK, 1998.